IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

AHMAD DONISHNING “RISOLA YOHUD MANG‘IT XONADONI SALTANATING QISQACHA TARIXI” ASARIDA CHOR ROSSIYASI TOMONIDAN BUXORO AMIRLIGI BOSQINIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Durdona Mashrabaliyeva
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23344842

Annotatsiya: Mazkur maqola Ahmad Donishning ilmiy faoliyati va uning “Risola yohud mang‘it xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarida Buxoro Amirligiga ruslar tomonidan qilingan bosqin haqida qisqacha mulohazalar haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Kalla, ”Navodir ul-voqea”, ”Tarjimai ahvol Buxoroyi sharif”, g’azod, jihod, Chor Rossiyasi, fon Kaufman, Salimbiy, Yahyo xoja Turkman, Sherali Inoq, lashkar, hisor, Jizzax qal’asi.

Tarix bu – xalqlarning o‘zligini anglatuvchi, uning keyingi kelajagiga tamal toshini qo‘yuvchi, to‘g‘ri xulosa beruvchi jarayondir. Har bir shaxs o‘z o‘tmishini bilishi, undan tarbiya olib, faxrlanishi lozim. Tarixni bilmoq vatanga bo‘lgan muhabbat hissini shakllantiradi. Vatanga muhabbat hissiga ega bo‘lgan shaxs hech qachon vatanni sotmaydi, birovga qaram bo‘lmaydi. Tarix insonning faqatgina aqliga emas, uning hissiyotlariga ham ta’sir etadigan ilmdir. O‘tmishda bo‘lgan ayrim hodisalar, kishini o‘ylantirmasdan qo‘ymaydi, nega bunday bo‘lgan, nima sabab degan savollarni tug‘diradi. Bizning tarixda xalqimizning boshiga qora kunlar tushgan davr XIX asrning 2-yarmi Chor Rossiyasining bosqini va yurtimizni mustamlakaga aylantirilgan davr tarixini bilmoq, bugungi farovon hayotning qadriga yetishimizga sababchi bo‘ladi. Mana shu davrning davlat arbobi va tarixchisi Ahmad Donish (1827-1897) hisoblanib, u Buxoro amirligida (1756-1920) yashab, faoliyat ko‘rsatgan. Uning to‘liq ismi Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al- Xanafiy al-Buxoriydir. U 1827-yilda Buxoroda tug‘ilgan. Otasining ismi Nosir, Donish esa Ahmad ibn Nosirning taxallusi edi. U Ahmad Kalla deb ham atalgan. Uning tarjimai holi haqida ma’lumotlar juda kam, bunda Ahmad Donishni shaxsan o‘zini ko‘rgan, asarlariga katta qiziqish bilan yozgan ustoz Sadriddin Ayniy xotiralarida ma’lumotlar mavjud[1]. U yoshligidan yaxshi o‘qib tarix, mumtoz adabiyot, riyoziyot, ilmi nujum-astronomiya, musiqa, tibbiyot, husnixat va musavvirlikni o‘rgangan.

Ahmad Donish o‘z faoliyatini xattotlikdan boshlagan va XIX asrning 50-yillaridan Buxoro amiri Nasrulloxon (1827-1860) xizmatiga qabul qilingan, 1870-yilda is’tefoga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Ahmad Donish 1857-yilda Amir Nasrullo, 1869-1874-yillar Amir Muzaffar (1860-1885) elchiligi tarkibida Peterburgda bo‘ldi va Rossiyaning iqdisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar olimning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Lekin u Buxoroning Rossiyaga qaraganda qaloqligining haqiqiy sabablarini tushunib yetmadi. U

[1] Ражабов З. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. -Душанбе: Ирфон, 1964. -Б. 85.

jamiyatni mavjud qonun-tartiblarini takomillashtirish yo‘li bilan, odil podshoning qo‘li bilan qaytadan qurish mumkin deb hisobladi. Ahmad Donishning bu qarashlari uning ”Navodir ul-voqea” nomli asarida o‘z aksini topdi. Uning ushbu asarida amir davlatni boshqarish ishlarini qaytadan qurishni maslahat berdi. Lekin, amir bundan darg‘azab bo‘lib, 1870-yillarda Ahmad Donishni poytaxtdan uzoqlashtirib G‘uzorga qozi qilib yuboradi.

Ahmad Donish 1885-yilda amir Muzaffar vafot etishi bilan yana poytaxtga qaytib keladi va umrining qolgan qismini ilmiy mashg‘ulotga bag‘ishlaydi. Ahmad Donish 1897-yilda vafot etadi. U 20 dan ortiq asar yozgan bo‘lib, ”Navodir ul-voqea”, ”Tarjimai ahvol Buxoroyi sharif” asarlari aynan mana shu davr tarixiy jarayonlariga bag‘ishlangan[2].

”Risola yohud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asari Buxoro amirliging XIX asrda ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda ahamiyati katta. Asarda katta so‘zboshi, sayyoralarning inson taqdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda amir Doniyol (1758-1785), amir Shohmurod (1785-1800), amir Haydar va amir Nasrullo hukmronligi yillarida bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan.

Asarning katta va so‘nggi qismi Amir Muzaffarga bag‘ishlangan. Bu qismida Buxoro amirliging XIX asning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Chor Rossiyasi qo‘shinlari tomonidan 1866-yili Jizzax hamda 1868-yili Samarqandning ishg‘ol qilinishi voqealari batafsil bayon qilingan.

Jumladan, ruslar bilan amirlik qo’shinlari o’rtasida bo’lgan to’qnashuv haqida quydagicha talqin qilingan: ”Hech bir mamlakatda ziyrak mulozim-u, aqilli arboblarsiz osoyishtalik o‘rnatib bo‘lmaydi. Ammo ular (amir va davlat arboblari) vaqtini tamomila yeyish, ichish, faxsh ishlar bilan o‘tkazish va shundan rohatlanish edi. Bu xislatlar bilan ularga yuk hayvonlarini sherik qilish mumkin. Umuman olganda, ruslarning Toshkent ustidan g‘alaba qilishi (1865-yil) va u yerni istilo qilishlaridan keyin Buxoro sarhadiga o‘tishda Samarqandga kirish darvozasida bo‘lgan Jizzaxni himoya qilish zarurligini, anglab, bu borada yuz ming tanga sarfladilar hamda mudofaa devorini qurdilar. Ruslarning olg‘a yurishiga to‘sqinlik qilish uchun ko‘p sonli ilg‘or guruhni qal’aga garnizon sifatida yubordilar[3].

Shu davrda umrida miltiqdan otilgan o‘q ovozini eshitmagan, urush ma’raqasini, jang maydonini ko‘rmagan amir g‘ulomlaridan biri Yoqub qo‘shbegi lashkarboshi etib tayinlandiki, eng oddiy navkar ham uning lashkarboshi etib tayinlanganiga or qilar edi. Rossiya Jizzax ustiga yurish qilmasidan bir oz avval Buxoro shahrida madrasa talabalari, ulamolari jihod qilish farz deb yosh-u keksani kofirlar ustiga tashlanishga chaqirib katta g‘avg‘o ko‘tardi. Amir bu xodisadan qiyin ahvolda qolib, ilojsiz lashkar tortish va qo‘shin anjomlarini tayyorlashga farmon berdi.

Shuni qo‘shimcha qilish joizki, istiloga qadar amirlik qo‘shinida harbiy xizmat xalq uchun juda sharafli bo‘lib, qo‘shin xazina hisobidan qurol, kiyim-bosh, patronlar bilan ta’minlangan, yangi xizmatga kelganlar uch oy tayyorgarlik o‘tagan, qo‘shin har oyda va yil oxirida kumush hamda tilla tangalar bilan maosh bilan ta’minlangan, bundan tashqari askarlarga bug‘doy ham

[2] Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. –B.243.

[3] Аҳмад Дониш. Рисола Ёхуд Манғитлар Хонадони қисқача тарихи. –Т.: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2014. – Б. 40.

berilgan[4]. Shunday bo'lishiga qaramay amirlikning harbiy ko'rigi va qurol-yarog'lari zamondan ancha orqada qolgan edi va Chor Rossiyasining zamonaviy qurol-yarog'lari bilan aslo tenglashaolmas, bu esa mag'lubiyatni asosiy sabablaridan biri edi.

Asarda yozilishicha, Katta qo'shin o'ttiz oltita to'p, bir necha tuyaga ortilgan artilleriya anjomlari bilan sarosima va hadikda shahardan chiqdilar. Dushman bilan yuzma-yuz kelganda porox va to'p o'qlari, o'q-dorilar Buxoroda qolgani, hamma urush jihozlari yaroqsiz ekani ma'lum bo'ldi. O'q-dorilar shu darajada ediki, uni alangalatish, shu'la berish uchun bir lagan otash kerak edi. Amirlik askarlari shu darajada sodda harbiy-texnik qurollarga ega edi. Misol uchun: kamon, bolta, porox, qayroqtosh, bigiz, pichoq (ham jangda ham kundalik hayotda juda kerakli, har bir askarning beliga baylangan edi), qilich bilan qurollanib olgan edi[5]. Askarlar dushman tomon ketganlarida g'azovotga chiqinglar deb shaharda davat boshlandi va har bir uy eshigini kaltak bilan taqillatar edilar. Shahar aholisi hech qachon to'p ovozini eshitmagani, urush maydonida bo'lmagani uchun, g'azod maydonda kurash, poygohda chopish bo'lsa kerak deb gumon qilar edilar. Har qaysisi uch gazli tayoq, ba'zilari tayoq uchiga temir qoplab olgan edilar. Dushman boshiga esa tayoq bilan solmoqchi edilar. G'aroyib va daxshatli zamon edi, ulamolar dod-u faryod ko'tarib, jihod qilish farz ekanligi isbotlashga urinar edilar[6].

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ayrim kishilar faoliyati yoki voqealarni bayon etar ekan, Ahmad Donish kinoya, kesatiq va mubolag'a bilan so'zlaydi. Ayniqsa u mutaassibchi mullalarni tinch aholini majburiy ravishda g'ayridinlarga qarshi kurashga-jihodga jalb etishga qaratilgan sa'y-harakatlariga xayrixohlik bildirmaydi, aksincha, ularni qoralaydi. Aytilganlaridan kelib chiqilsa "bilimdon ulamolar", "zakovatli ulamolar" kabi iboralar zamirida achchiq kinoyani anglash mumkin[7].

Birinchi jangdayoq askarlar yengilib, dushman uni ta'qib qilib olg'a yursa, navbat aholiga yetib kelishini ular anglamas edi. Aholi esa urushni tayoq va ketmon, bolta bilan bo'ladigan olushuv deb bilar edi. Bu esa achinarli holat hisoblanib, bizning sodda xalqimiz dushman bilan to'qnashuvni oddiy to'qnashuv deb o'ylar edilar.

Asarda keyingi voqealar quydagicha: "Chor-nochor urush boshlandi, karnay va nog'ora ovozi ko'tarildi. Rus askarlari bir yarim-ikki mingdan oshmasada, temir devorday kelar edi. Amir to'xtagan joyda shoxona chodir qad ko'tardi, jang maydoni taxminan undan bir farsah kelardi. Amir chodir soyasida shaxmat o'yini bilan band, bir to'da xofizlar g'azal aytish bilan band, Amir nog'orani bir maromda urilishiga moslab oyog'ini taqillatib o'tiribdi, har zamonda xizmatkorni chaqirib: "To'pxona amiri Salimbiy va askarlar amiri Sherali Inoqqa borib ayt, ruslarning xazinasi navkarlar qo'liga tushib talon-taroj qilmasin, rus mardumlarini ko'p o'ldirmay tirik olsin, ular sarbozlar qatoriga qo'shilsin va harbiy xizmatda bo'lsin. Oxund mansabiga ega bo'lgan Yahyo Xoja Turkman axmoqligi bilan mashhur edi, u choponini kiftiga tashlab, katta sahifani qo'liga ushlab, askarlarga jihod fazilatlarini talqin qilardi. Shu vaqt rus qo'shinlari hujumga o'tdi, to'plarni egallab ular ikki uch marta sochma o'q yog'dirishdi. Yahyo Oxund choponini tashlab birinchi bo'lib qochganlardan bo'ldi. Shu vaqtda amir hazratlariga

[4]Зияева Д. Х. Ўзбекистонда Ҳарбий иш тарихидан. –Т.: Sharq, 2012. –Б.168.
[5] Olufsen.O. The Emir of Bokhara and his country. –London: William Heinemann, 1911. –Ch.477.
[6] Аҳмад Дониш. Рисола Ёхуд Манғитлар Хонадони қисқача тарихи. –Т.: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2014. – Б. 41.
[7] Ўзбекистон тарихи, Хрестоматия, V жилт. (XVI-XIX асрлар). –Т.: O'zbekiston. - Б.384.

“Lashkar bevafolik qildi, orqaga chekindi” degan habar keltirdilar. Amir sarosimaga tushib, dovdiragan holda shaxmat ustidan turib, to‘nni va sallasini olishga ulgurmay, egarlanmagan otga minib jo‘nadi[8].

Amir ajoyib chodiri va butun artilleriyani tashlab, Jizzaxga qochib ketti, buxoro askarlaridan yo‘qotishlar 1000 ga yaqin odamni tashkil etdi, ayniqsa Qarshi mang‘itlari katta yo‘qotishga uchrashdi, o‘lgan va yarador bo‘lgan ruslar bor yo‘g‘i 50 nafar edi[9]. Bu jang rus harbiylari bilan amir qo’shinlari o’rtasidagi dastlabki to’qnashuv bo’lib, 1866-yil bahorida Erjar qishlog’i yaqinida bo’lib o’tgan edi.

Ruslar endi asosiy e’tiborini Jizzax qal’asiga qaratdilar, Hamma Jizzax qa’lasiga yig‘ildi. Muntazam askarlar sarkardalari ”shahar ichkarisida bo‘lish durust emas, hisor tashqarisiga chiqib jang qilganimiz ma’qul” deb maslahat berdilar. Lekin bosh sarkardalarni qulog‘iga bu gaplar yetib bormadi. Barchalari ayollar yig‘inida bo‘lgani kabi shovqin solib bir-birlarini eshitmas edi. Ish shunga borib yetdiki, muntazam askarlardan iborat avg‘on jamoasi rus askarlar bilan jang-u jadal qilib shahid bo‘ldilar, qolgan axmoqlar shahar darvozasini tuproq bilan to‘ldirib tashlab, bu bilan o‘zlarini halos bo‘lish yo‘llarini to‘sib, o‘limlariga katta yo‘l ochdilar, amirlar, lashkarboshlar va askarlar qurshovda qolishdi.

Shu asnoda ruslar qal’aga kirib, oldilaridan kim chiqsa, otar edi, ruslar askarlarni otib o‘ldirib, o‘zlari tuproq bilan yopgan darvozaxonaga haydab bordilar. Askarlar dushman o‘qi tegmasin deb boshlarini bir-birlarini orqasiga yashirar, dushmanga orqasini o‘girib o‘tishardi, ikki-uch ming askarlarni ruslar orqasiga o‘tib oq otishdi, o‘q ularni oltitasini teshin, yettinchisini orqasiga tiqilib qolardi. Askarlar to‘p-to‘p bo‘lib yiqilar, orqada ruslar bor deb qarashga jur’at qilaolmas edi, shu asnosda jahanamga ravona bo‘lishar edi. Shu orada ayrimlar darvozadan oshib o‘zlarini yerga tashladilar, qo‘l-oyoqlaridan maxrum bo‘lib Samarqandga yetdilar va avlodlari eshitsin deb, ibrat bo‘lsin deb ularni bu daxshatli voqeadan habardor qildilar”.

Ruslar Jizzaxni egallab aholini ayovsiz talon-taroj qiladi, qo‘lga kiritilgan boyliklar shu darajada ko‘p va babaho bo‘ldiki ruslar bunaqasini hali ko‘rmagan edi. Ularning orasida qimmatbaho kiyim-kechak, tilla-kumush bilan sayqallangan qurol-jabduq, turkman otlari, rus, kavkaz, turk qilichlari, xatto bir askar 1000 tilla tangasi bor xaltacha qo‘lga kiritgani haqida mish-mishlar tarqaldi[10].

”Ruslar Jizzaxni egallagani habari Amirga yetib bordi, Amir Samarqandda turishni xohlamay Buxoroga jo‘nadi. Ulamolar haqiqiy ahvoldan habarsiz mullalar va avom xalqni to‘plab Samarqandda yig‘dilar. Ular o’ruslar bilan jang qilish kerak, bu farz deb xohlagan, xohlamagan kishilarni jihod qilishga majburlashdi. Amir tomonidan Samarqandga hokim qilib qoldirgan Sherali Inoq esa ”shularning shumligi va ig‘vosi bilan qancha jang, fitnalar sodir bo‘lmadi, bu mullalar qatl qilinmasa omma tinchimaydi” deb yig‘ilganlarni qatl qilishga buyurdi. Dushman bostirib kelishiga qaramay, ular amallarlarini xatosi bo‘lmish bir to‘da musulmonlarni qoni bilan bo‘yadilar. Samarqand fuqorolari bu bedodlikni Sheralidan ko‘rib, butun aholi, musulmon talabalari, erkak-u ayollar, samarqand garnizoni askarlariga qarshi ko‘tarildi, ko‘chalarda nahrlar odamlar qoni bilan oqa boshladi. Bu xabarlar dam-badam dushman

[8] Аҳмад Дониш. Рисола Ёхуд Манғитлар Хонадони қисқача тарихи. –Т.: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2014. – Б. 44.
[9] Arminius Vambery, History of Bokhara. London: Henry S. King & Co, 1873. –Ch. 404.
[10] Туркистон чор россияси мустамлакачилик даврида. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 2000. -Б.99.

qulog‘iga yetib bordi. Ruslar Samarqandga yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlashdi, parokandalik ularga albatta qo‘l kelishini hisobga olishgan edi”[11].

Shunday qilib dushmanga qarshi birlashishni o‘rniga amirlar, sarkardalar, ulamolar-u amaldorlar o‘z bilganicha ish tutib, dushmanning yukini yengil qildilar. Mahalliy aholi esa nima bo‘layotganligini anglamay vahimaga tushib, o‘zlarini yo‘qotib qo‘ydilar. Bir-birlarini bo‘lgan voqealarda ayblab qing‘ir-barot qildilar, o‘sha paytlardagi tartibsizlik, amirning kaltafahimligi, harbiy-texnik ahvol o‘rta asr jang usullarida qolib ketgani, markaziy boshqaruvni izdan chiqqani rus ma’murlariga qo‘l kelgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Arminius Vambery, History of Bokhara. London: Henry S. King & Co, 1873.
2. Olufsen.O. The Emir of Bokhara and his country. –London: William Heinemann, 1911
3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. –B.243.
4. Аҳмад Дониш. Рисола Ёхуд Манғитлар Хонадони қисқача тарихи. –Т.: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2014. – Б. 41.
5. Ражабов З. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. -Душанбе: Ирфон, 1964. -
6. Зияева Д. Х. Ўзбекистонда Ҳарбий иш тарихидан. –Т.: Sharq, 2012.
7. Туркистон чор россияси мустамлакачилик даврида. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
8. Ўзбекистон тарихи, Хрестоматия, V жилт. (XVI-XIX асрлар). –Т.: O‘zbekiston. - Б.384.

[11] Аҳмад Дониш. Рисола Ёхуд Манғитлар Хонадони қисқача тарихи. –Т.: Ўзбекистон миллий енциклопедияси, 2014. – Б. 49.